IKKINCHI JAHON URUSHI XOTIRALARDA

Turdiyev Xumoyun Xurshid o'g'li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti
2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.8351364

Annotatsiya: Ushbu maqolada men ikkinchi jahon urushi xotiralari to'grisida qisqacha yoritib o'tganman. Yani urushning boshlanish sabablari, oqibatlari va urushdan ko'rgan talofatlar bilan birgalikda o'zbek xalqining ko'rsatgan jasorati, matonati va qay darajada insonparvarligi to'grisida keltirib o'tganman.
Kalit so'zlar: koalitsiya, minomyot, artileriya, fashizm , "Stalingrad" janggi, SSSR(Soviq Sovet Sotsialistik Respublikasi), "Dengiz sheri", "Barbarossa rejasi", "Uchlar ittifoqi", "Tanklar jangi",

Hammamizga ma'lumki Ikkinchi jahon urushi 1939-yilning 1-sentabridan 1945-yilning 2-sentabrigacha, ya'ni 6 yil mobaynida bo'lib o'tadi. Bu urush dunyoning 61 davlatlarini o'z domiga tortdi. O'z navbatida bu davlatlarda jami dunyo aholisining 80 foizi istiqomat qilib ulardan 110 mln kishi harbiy safarbarlikga jo'natilgan. Bu qonli urushda jami 65—67 mln kishi halok bo'lgan va umumiy vayrongarchiliklardan ko'rilgan zarar 4 trillion dollarni tashkil etgan. Urushning boshlanishi to'g'risida gapiradigan bo'lsak avvalo SSSR haqida ham to'xtalib o'tishimiz lozim. Chunki ko'p manbalarda ikkinchi jahon urushining boshlanishida SSSR(Soviq Sovet Sotsialistik Respublikasi) ning ham aybi borligi keltirib o'tilgan. 1939-yil 23-avgustda SSSR bilan Germaniya o'rtasida Molotov-Ribbentrop pakti 10 yil muddatga hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzolandi. Bu shartnomaning maxfiy qo'shimcha ahdnomasiga muvofiq, Germaniya va SSSR Sharqiy Yevropada o'zlarining ta'sir doiralarini bo'lib olishlari kerak edi. Ular bu maqsadlari avvalo Polsha davlati bilan bog'liqligini bilishar edi. Shartnomaga muvofiq ular Polsha davlatiga bir vaqtda qo'shin kiritishlari kerak edi ammo SSSR bu majburiyatni bajarmadi va natijada Germaniya davlati 1939-yil 1-sentabrda Polshaga bostirib kirdi. Bunga javoban esa Buyuk Britaniya hamda Fransiya Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi va shu tariqa urush boshlanib ketdi.

Polshaga bo'lgan yurishdan so'ng Germaniya Buyuk Britaniyani bosib olish maqsadida 1940-yil 15-avgustda harbiy-havo kuchlarini Buyuk Britaniyaga qarshi tashladi va bu aperatsiyaning nomi "Dengiz sheri" deb nomlandi. Baxtga qarshi Buyuk Britaniya harbiy-havo kuchlari ham Germaniyanikidan qolishmas edi, natijada bu reja amalga oshmadi, operatsiya muvofaqqiyatsizlikga uchradi. Ayni paytda AQSH Buyuk Britaniyaga yordam qo'lini cho'zdi va bu ikki davlat birlashishdi. Buyuk Britaniyani mag'lubiyatga uchratish rejasi barbod bo'lgach, Germaniya endi Sovet davlatini bosib olishga qaror qildi. Germaniya allaqachon sovet davlatiga qarshi urush rejasiga ega edi. U tarixga "Barbarossa rejasi" nomi bilan kirdi. 1940-yilning 27-sentabrida "Uchlar ittifoqi" shartnomasi tuzildi. Boshqacha qilib aytganda bu shartnomaning asosiy maqsadi dunyoni qayta bo'lish edi. Tez orada bu shartnomaga Ruminiya, Vengriya va Bolgariya ham qo'shildi va ular hududiga Germaniya armiyasi joylashtirildi. 1941-yilning 22-iyunida Germaniya Sovet davlatiga qo'qqisdan hujum qildi hamda Sovet armiyasiga qaqshatqich zarba berdi. Shu tariqa Sovet-German urushi boshlanib ketdi va bu urush tarixda "Ulug' Vatan urushi" nomi bilan shuhrat topdi. Germaniya SSSR ga

hujum qilgach SSSR tarkibidagi barcha davlatlarda majburan urushga safarbarlik harakati boshlandi, bu davlatlar orasida O'zbekiston ham bor edi.
Fashistlar Germaniyasi va ittifoqchilarining tajovuzkorona harakatining tobora avj olishi jahon mamlakatlarini tashvishga soldi. 1941-yil yozida fashistlar Germaniyasiga qarshi koalitsiya tuzish yo'lida dastlabki qadam qo'yildi. 1941-yil 12-iyulda SSSR va Buyuk Britaniya hukumatlari fashistlar Germaniyasiga qarshi urushda birgalikda harakat qilish haqida kelishib olishdi va 1941-yil 24-sentabrda Sh. Goll boshchiligida Ozod Fransiya milliy qo'mitasi tuzilib, fashizmga qarshi kurash boshlandi. 1941-yil 5-dekabrda nemisfashist qo'shinlarining Moskva jangidagi mag'lubiyati Gitlerning "yashin tezligidagi urush"deb atalmish rejasini puchga chiqardi. Natijada unga qarshi urushga kirgan mamlakatlar soni ortdi.
1942-yil kuzga kelib Sovet davlati, AQSH va Buyuk Britaniya agressor davlatlar Germaniya, Italiya va Yaponiyaga nisbatan 5 baravar ko'p artileriya qurollari va minomyot, 3 baravar ko'p samolyot va 10 baravar ko'p tank ishlab chiqara boshladi. 1942-yilning 19-noyabrida mashhur "Stalingrad" jangi boshlandi. U 1943-yilning 2-fevraligacha davom etdi va bu jangda Germaniyaning saralangan armiyasi tormor etildi. 1943-yilning yozida esa mashhur Kursk jangi bo'lib o'tdi. "Tanklar jangi" nomi bilan tarixga kirgan bu jangda ham Sovet qo'shinlarining qo'li yana baland keldi. Natijada German armiyasi orasida Gitlerni yo'qotish tarafdorlari poydo bo'ldi. Ular Gitlerni qurbonlikga berib, Germaniyani halokatdan saqlab qolishmoqchi bo'lishdi. 1944-yil 20-iyunda Gitlerga suiqasd uyushtirilishiga qaramay u omon qoldi.
Urushning oxiri 1945-yilning 4-fevralida Qrim viloyatidagi Yalta shahrida Sovet davlati, AQSH hamda Buyuk Britaniya rahbarlari to'planib , Germaniyani soz'siz taslim etish, uning qurolli kuchlarini yo'q qilish, harbiy jinoyatchilarni jazoga tortish, fashistlar tashkilotchilarini, qonunlari va tartiblarini yo'q qilish, Germaniyani uning agressiyasiga duchor bo'lgan davlatlarga reparatsiya to'lashga majbur etishga kelishib olishlari va 1945- yil 16- aprelda amalga oshirilgan so'ngi yurishlari bilan yakunlanadi. 30- aprel kuni Germani rahbarlari Gitler, Gimmler, va Gebbeslar o'z jonlariga qasd qildilar. Oqibatda 8 maydan 9 mayga o'tar kechasi Berlin yaqinidagi Karlxorst deb ataladigan binoda Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lganligi haqida hujjat imzolandi. Shu tariqa 9- may sanasi Xotira va qadrlash kuni yoki G'alaba kuni deb ataladigan bo'ldi.
Urush yillarida respublikamizda neft ishlab chiqarish 4 barobarga ko'payib, 1945-yilda 478 ming tonnadan ortdi. Energetika va yoqilg'i sanoatining o'sishi mashinasozlik sanoatining rivojlanishiga qulay imkoniyat yaratdi. G'arbdan ko'chirib keltirilgan zavodlar bazasida 16 ta stanoksozlik, to'qimachilik va mashinasozlik korxonalari tashkil etildi. Urushdan oldingi respublikamizdagi ko'pgina zavodlar ham turli asbob-uskunalar, mashinalar, jangovar texnika ishlab chiqarishga moslab qayta qurilgdi. Bu korxonalarning asosiy xom ashyosi metall bo'lganligi bois unga bo'lgan talab tobora oshib bora boshladi. Urush yillarida qurilish materiallari sanoati, to'qimachilik va poyabzal sanoati, oziq-ovqat sanoati, mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Faqat 1943-yilda 12 ta yog' zavodi, 3 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta qand va 4 ta konserva zavodlari qurilib ishga tushirildi. Urush yillarida O'zbekistonda 280 ta yangi sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Sanoatning yangi tarmoqlari – aviatsiya, stanoksozlik, og'ir mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya hamda boshqa tarmoqlari vujudga keldi. Toshkent SSSRning eng katta sanoat markazlaridan biri bo'lib qoldi. Va frontni muntazam zaxiralar bilan ta'minlab turdi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki urushda g'alabaga erishish transport ishi bilan bog'liq edi. 1943-yil 25-yanvarda "Toshkent temir yo'li ishi to'g'risida" maxsus qaror qabul qilingach, Temir yo'l harbiy holatga o'tkazildi, unda ishlovchilar safarbar etilgan deb hisoblandi va harbiy xizmatchilar kabi qattiq intizomga rioya etish majbur qilib qo'yildi. Poezdlar harakatining qo'shinlar va harbiy yuklarni birinchi navbatda o'tkazib yuborishini ko'zda tutuvchi harbiy grafik joriy etildi. Toshkent temir yo'l transportchilari ko'chirib keltirilayotgan korxonalarning asbob-uskunalarini va millionlab kishilarni G'arbdan Sharqqa, jangovar texnika va qurol-yarog'larni SHarqdan G'arbga o'z vaqtida to'xtovsiz o'tkazib turish topshirig'ini bajardi va albatta bu urush mobaynida ulkan imkoniyatlar eshigini ochib beribgina qolmay, urushda g'alabaga erishishda asosiy vosita bo'lib xizmat qildi.

Ikkinchi jahon urushi oqibatida bir qancha talofatlar ko'rildi xususan mustamlakachi imperiyalarning yemirilishi boshlandi. O'nlab yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Buyuk Britaniya va Fransiya sezilarli darajada zaiflashdi.

Bu urush mobaynida bizning xalqimiz yana bir bor o'zining jasorati matonatini butun jahonga ko'rsatdi. Xususan 1941- yilda mamlakatimizning jami 6,5 mln aholisidan 1 mln 433200 qismi urushda qatnashib mamlaktimiz kelajagi, biz farzandlarining kelajakda mana shunday mustaqil davlatda tinch va osoyishta yashashimiz uchun o'z jonlarini xatarga qo'yib janga otlanishdi. Urushdan ishtirok etganlardan 268005 kishi mardlarcha halok bo'lib, 132670 kishi bedarak yo'qoldi. Qolgan qismi esa mayib-majruh bo'lib qoldi. Yana bir e'tiborga sazovor tomoni shuki urush davomida mamlakatimiz 1 mln dan ortiq kishini o'z oilasiga qabul qildi va ular uchun jami 135 ming kv.m lik uy joy ajratib berildi. Evakuatsiya qilinganlar ichida 200 ming bola bo'lib, ularning yetim o'smasligi, ota-ona mehriga zor bo'lib qolmasligi uchun ko'pgina o'zbek oilalari ikki va undan ortiq farzandni o'z tarbiyalariga olishdi. Xususan Shomurodovlar oilasi 14 ta, Samadovlar oilasi 12 ta, Jo'rayevalar oilasi esa 8 ta farzandni asrab olgani ham o'zbek xalqining naqadar mehribon, mehmondo'st va asosiysi insonparvarligini yana bir bor ko'rsatib o'tdi.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu urush haqida va o'zbek mard o'g'lonlarning ko'rsatgan jasorati to'g'risida shunday nutq so'zlaydilar:" O'zbekiston xalqi ana shunday og'ir talafotlar ko'rib, buyuk G'alabaga beqiyos hissasini qo'shdi. 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovar orden va medallar bilan mukofotlangani ham bu fikrlarimizning yaqqol isbotidir. Vatandoshlarimizning 301 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni degan yuksak unvonga, 70 nafardan ortig'i uchala darajadagi "Slava" ordeniga sazovor bo'lganini alohida ta'kidlash lozim"deb aytib o'tadilar. Albatta bu urush barcha davlatlar uchun bir saboq bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. Chunki deyarli barcha mamlakatlarning iqtisodiyoti, sanoati va rivojlanishida pasayishlar kuzatilibgina qolmay dunyo aholisining ko'p qismi qirilib ketishiga ham sabab bo'ldi. Bu qonli urush, uning natijalari va bu urushda mardlarcha halok bo'lganlar haqida kelajak yoshlariga yetkazish, urush naqadar yomon va xunrezligini ularga uqtirish bizning burchimizdir.

References:

1. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -T.: Sharq, 2000-yil.
2. Hidoyatov G.A. Jahon tarixi. 10-sinf uchun darslik. T. "Sharq", 1999.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild.T. "O'zbekiston", 1996.

4. https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-khotira-va-qadrlash-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi.
5. https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14430-ikkinchi-jahon-urushi-1939-1945-yillardagi-urush-harakatlari..